

MAISHIY PUDRAT SHARTNOMASI DOIRASIDA BUYURTMACHINING ISH NATIJASINI QABUL QILISH UCHUN KELMASLIGI (HOZIR BO'LMASLIGI)NING HUQUQIY OQIBATLARI HAQIDA

Aliyeva Farangiz Rashidjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy odil sudlov fakulteti

2-bosqich A potok 1-guruh talabasi

farangizaliyeva1402@gmail.com Tel: (90) 533-56-89

(94) 459-08-66

Pudrat shartnomasining eng ko'p uchraydigan turi bu **maishiy pudrat shartnomasi** hisoblanadi. Fuqarolik kodeksining 656-665-moddalari aynan maishiy pudratga bag'ishlangan bo'lib, unda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan pudratchi maishiy pudrat shartnomasi bo'yicha buyurtmachi-fuqaroning topshirig'i bilan uning maishiy yoxud boshqa shaxsiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ma'lum ishlarni bajarish majburiyatini, buyurtmachi esa ishni qabul qilish va haqini to'lash majburiyatini olishi belgilangan. Shuni ham aytish o'rinliki, maishiy pudrat yuzasidan tuzilgan shartnoma ommaviy shartnoma hisoblanadi.

Endi esa, asosiy mavzu buyurtmachi ish natijasini qabul qilish uchun kelmasligining oqibatlariga to'xtalamiz. Jumladan, Fuqarolik kodeksi 664-moddasiga asosan, buyurtmachi bajarilgan ish natijasini qabul qilish uchun kelmagan yoki ishni qabul qilishdan boshqacha tarzda bo'yin tovlagan taqdirda, pudratchi buyurtmachini yozma ravishda ogohlantirib, bunday ogohlantirishdan **keyin ikki oy** o'tgach, ishning natijasini oqilona narxda sotishga, tushgan pulni esa, undan o'ziga tegishli bo'lgan butun to'lovlarni chegirib qolib, ushbu kodeksning 249-moddasiga muvofiq buyurtmachining nomiga depozitga o'tkazishga haqli ekanligi belgilangan. Shuningdek, 664-moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan hollarda pudratchi ish natijasini sotish o'rniga uni ushlab turish yoki keltirilgan zararni buyurtmachidan undirib olish huquqidan foydalanishi mumkin. Demak, buyurtmachi kelmagan taqdirda ishni bajaruvchida ish natijasini saqlash kabi qo'shimcha xarajat bilan bog'liq muammo paydo bo'ladi. Avvalo, bajaruvchi buyurtmachini bu haqida yozma ravishda ogohlantirishi ham mumkin va bu shunday bo'lishi lozimki, buyurtmachi tomonidan ogohlantirishni qabul qilishi faktining obyektiv isboti bo'lishi mumkinligi sharhlanadi.

Yuqoridagi moddada, pudratchi 249-moddasiga muvofiq buyurtmachining nomiga depozitga o'tkazishga haqli ekanligi belgilangan, shundan kelib chiqib aytish mumkinki, 249-moddaga asosan, qarzdor o'zi to'lashi lozim bo'lgan pul yoki qimmatli qog'ozlarni notariusning depozitiga, qonunda belgilangan hollarda esa — sudning depozitiga qo'yishga haqli, basharti majburiyat qarzdor tomonidan quyidagilar tufayli bajarilishi mumkin bo'lmasa:

1) majburiyat bajarilishi lozim bo'lgan joyda kreditor yoki ijroni qabul qilib olish uchun u vakil qilgan shaxs bo'lmasa;

2) kreditor muomalaga layoqatsiz bo'lsa va uning vakili bo'lmasa yoki vakil rozi bo'lmasa;

3) majburiyat bo'yicha kim kreditor ekanligi xususida aniqlik yo'qligi ko'rinib turgan bo'lsa, xususan bu haqda kreditor bilan boshqa shaxslar o'rtasida nizo chiqqanligi munosabati bilan;

4) kreditorning ijroni qabul qilishdan bo'yin tovlashi yoki uning tomonidan boshqacha yo'l bilan kechiktirilishi munosabati bilan.

Pul summasini yoki qimmatli qog'ozlarni notarius yoxud sudning depozitiga qo'yish majburiyatni bajarish hisoblanadi.

Depozitiga pul yoki qimmatli qog'ozlar qo'yilgan notarius yoxud sud kreditorni bundan xabardor qiladi.

Agar maishiy pudrat shartnomasi bo'yicha ish pudratchining materialidan foydalanib bajarilsa, 662-moddaga binoan, buyurtmachi material haqining hammasini shartnoma tuzish vaqtida to'laydi yoki uning shartnomada ko'rsatilgan qismi to'lanib, pudratchi bajargan ishni buyurtmachi qabul qilib olayotganda to'la hisob-kitob qilinadi.

Maishiy pudrat shartnomasiga binoan material pudratchi tomonidan nasiyaga berilishi, shu jumladan buyurtmachi tomonidan materialning haqini bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan ham berilishi mumkin. Pudratchi tomonidan berilgan material bahosining maishiy pudrat shartnomasi tuzilganidan keyin o'zgarishi qayta hisob-kitob qilishga sabab bo'lmaydi. Agar maishiy pudrat shartnomasi bo'yicha ish buyurtmachining materialidan foydalanib bajarilsa, shartnoma tuzilayotganda buyurtmachiga pudratchi tomonidan beriladigan patta yoki boshqa hujjatda materialning aniq nomi, ta'rifi va taraflarning kelishuvi bo'yicha belgilanadigan bahosi ko'rsatilishi kerak. Patta yoki shunga o'xshash boshqa hujjatlardagi materialning bahosi xususida buyurtmachi keyinchalik sudda nizolashishi mumkin.

Buyurtmachi ish natijasini qabul qilib olayotgan yoki pudrat narsasidan foydalanayotganda kamchiliklarni aniqlasa, umumiy muddat davomida, kafolat muddati bo'lganida esa shu muddat davomida amalga oshirishi mumkin. Buyurtmachi amaldagi qonun hujjatlariga asosan iste'molchi sifatida boshqa huquqlarga ham ega. Shartnomani o'zgartirish va bekor qilish esa pudrat to'g'risidagi umumiy qoidalaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Xorijiy tajribaga nazar solsak, Amerika qonunchiligida aynan maishiy pudrat shartnomasining buzilishi tasniflanar ekan.¹ Jumladan:

- ✓ Kichkina qoidabuzarlik;
- ✓ Jiddiy buzilish;
- ✓ Haqiqiy buzilish;

¹ <https://www.investopedia.com/terms/b/breach-of-contract.asp>

✓ Oldindan buzilish:

Kichkina qoidabuzarlik- belgilangan muddatda mahsulot yoki xizmatni olmaganingizda sodir bo'ladi. Misol uchun, siz tikuvchingizga mos keladigan kostyumni olib berasiz. Tikuvchi (og'zaki shartnoma) sizning muhim taqdimotingiz uchun moslashtirilgan kiyimni o'z vaqtida yetkazib berishlarini va'da qiladi, lekin aslida ular uni bir kundan keyin yetkazib berishadi.

Jiddiy buzilish- agar siz shartnomada ko'rsatilganidan boshqacha narsani qabul qilsangiz, jiddiy buzilishdir. Masalan, sizning kompaniyangiz avtomobil sanoati konferensiyasi uchun 200 nusxadagi qo'llanmani yetkazib berish uchun sotuvchi bilan shartnoma tuzadi. Ammo qutilar konferensiya joyiga yetib kelganida, ular o'rniga bog'dorchilik broshyuralari bo'ladi.

Haqiqiy buzilish- tomonlardan biri shartnoma shartlarini to'liq bajarishdan bosh tortganda.

Oldindan buzilish- bir tomon shartnoma shartlari bo'yicha yetkazib berilmasligini oldindan bildirganda.

Ingliz huquqshunoslari fikriga ko'ra, ushbu turdagi shartnomaning buzilishi ba'zan umumfoydali bo'lgan hollarda ruxsat beriladi. Masalan, bahor faslida vino zavodi va uzumchi dehqon shartnoma tuzadi, kuzda uzumni sotish va sotib olish uchun. Lekin yozda uzumning narxi oshib ketadi, vino zavodlaridagi vino narxlari esa aksincha tushib ketadi, bu vaziyatda zavod uzumni sotib olishdan, dehqon esa arzonga sotishdan zarar ko'rishi aniqligi holda, taraflar shartnomani buzishlari manfaatli bo'ladi shartnoma taraflari uchun.

Shunisi e'tiborliki, Xalqaro tajribada Fransiya va Germaniya fuqarolik qonunchiligida aynan maishiy pudrat shartnomasi haqida maxsus boblar mavjud emas. Lekin,

Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksining 730-739-moddalarida maishiy pudrat uchun alohida bob mavjud va shu moddalar asosida normalar xuddi bizdagi kabi ifodalangan. Bemalol, O'zbekiston va Rossiya Federatsiyasi kodekslarini taqqoslasak bo'lar ekan. Bizning kodeks 664-moddasi va Rossiya kodeksi 738-moddalari bir xil nomlangan bo'lib, unga ko'ra, buyurtmachi bajarilgan ishning natijasini olmagan taqdirda yoki boshqa yo'l bilan buyurtmachi uni qabul qilishdan bo'yin tovlagan taqdirda, pudratchi bunday ogohlantirish olingan kundan boshlab **ikki oy o'tgandan keyin** buyurtmachini yozma ravishda ogohlantirishga haqli. ish natijasini maqbul narxga sotish va tushumni pudratchiga to'lanadigan barcha to'lovlarni olib tashlab, Rossiya Kodeksining 327-moddasida nazarda tutilgan tartibda depozitga to'lashi mumkinligi belgilangan. Demak, har ikki davlat qonunchiligida ham deyarli farqlar mavjud emas ekan buyurtmachi ishning natijasini olish uchun vaqtida hozir bo'lmagan holler uchun albatta.

Talab qilinmagan mol-mulkni sotish huquqi pudratchi tomonidan tuzilgan kundan boshlab ikki oy o'tgach paydo bo'ladi va ish natijasini olish zarurligi haqida mijozga

yo'zma ogohlantirish beradi. Natija yoki mablag'lar depozitga kiritilgan paytdan boshlab javobgarlik ko'rib chiqiladi va pudratchi ushbu mablag'larga bo'lgan huquqlarni yo'qotadi, mijoz ularga egalik huquqini oladi. Notarius yoki sud buyurtmachini pudratchi tomonidan buyurtmachining mablag'lari to'langanligi to'g'risida xabardor qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://lex.uz/docs/-180552#-188955>
2. <https://www.osce.org/files/f/documents/5/2/106230.pdf>
3. <https://www.osce.org/files/f/documents/8/7/74875.pdf>
4. [https://www.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/huquq/Fuqarolik%20huquqi.%20%202-qism%20\(V.Topildiyev\).pdf](https://www.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/huquq/Fuqarolik%20huquqi.%20%202-qism%20(V.Topildiyev).pdf)
5. ДОГОВОР БЫТОВОГО ПОДРЯДА В ГРАЖДАНСКОМ ПРАВЕ РОССИИ
С.В. ТЫЧИНИН
6. УДК 347 Баева М.А., аспирант Белгородского университета потребительской кооперации